



### Qurbonova Dilafro'z Nosir qizi

*BuxDU 2-kurs magistiri*

Isroil Subhoniyl o'zbek adabiyotida she'riy janrlar yaratuvchisi sifatida alohida mavqega ega bo'lgan ijodkorlardan biridir. Uning adabiy faoliyati faqat mazmun jihatidan emas, balki shakl jihatidan ham o'ziga xos yangilik va izlanishlar bilan boyidir. Subhoniyl o'z ijodiy yo'li davomida "shashqator", "munojot", "shakarob", "chorzarb" singari bir qator yangi janr va adabiy shakllarni adabiyotimizga tatbiq etdi. Bu shakllarning har biri o'z ichki qonun-qoidalariga, poetik mantiqiga va estetik xususiyatlariga ega bo'lib, ular adabiy jarayonni boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Isroil Subhoniyl o'zbek adabiyoti tarixida she'riy janrlar yaratuvchisi sifatida alohida mavqega ega bo'lgan ijodkorlardan biridir. Uning adabiy faoliyati faqat mazmun jihatidan emas, balki shakl jihatidan ham o'ziga xos yangilik va izlanishlar bilan boyidir. Subhoniyl o'z ijodiy yo'li davomida "shashqator", "munojot", "shakarob", "chorzarb" singari bir qator yangi janr va adabiy shakllarni adabiyotimizga tatbiq etdi. Bu shakllarning har biri o'z ichki qonun-qoidalariga, poetik mantiqiga va estetik xususiyatlariga ega bo'lib, ular adabiy jarayonni boyitishga munosib hissa qo'shdi.

Shoir ijodidagi eng e'tiborli janriy kashfiyotlardan biri "shashqator" tushunchasi bilan bog'liq. Mazkur she'riy shakl to'rtta voqeaband misra va o'zaro ohangdosh xulosaviy baytdan tarkib topadi. Bunda asosiy g'oya yoki falsafiy fikr voqeaband qismda obrazli ko'rinishda bayon etilib, xotima baytda muxtasar va hikmatli tarzda umumlashtiriladi. Bu usul sharq she'riyatidagi "irsol-ul-masal" san'atiga uzviy bog'liq. Unda konkret bir manzara yoki qiyos orqali abstrakt fikrni ko'rgazmali ifodalash maqsad qilinadi. Shoir o'zi yaratgan "Shashqatorlar" turkumida inson umrining o'tkinchiligi va hayotning omonat tabiati kabi cheksiz mavzularni shu shakl doirasida ifodaladi. Masalan, quyidagi misralar buning yorqin dalilidir:

Omonat dunyoda — omonat odam...  
Gapirsam yuzingni shartta burasan.  
Rejalar tuzasan to hashri olam,  
Mangulikni ko'zlab uylar qurasan.  
Umr — kiprikdagi tomchi degan so'z,  
Kiprik qoqilishi — kecha va kunduz.<sup>48</sup>

Ushbu parchadagi to'rt misrada inson hayotiga xos ziddiyat — o'tkinchilikni bilgan holda mangu yashashga intilish yorqin poetik tarzda gavdalanitiriladi. Xulosaviy baytda esa umrning bir kiprik qoqishdek qisqaligi teran falsafiy mulohazaga aylanadi. Misralarda

<sup>48</sup> Subhoniyl. Shashqator. Toshkent - O'zbekiston, 2019 - 20 - 67 - bet





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tazod, mubolag'a, sifatlash, tanosub kabi san'atlardan mohirona foydalanilishi she'rga o'ziga xos ohang va ichki harakatlanish quvvati baxsh etadi.

Subhoniyning novatorlik faoliyati yagona bir shaklda to'xtab qolmaydi. Shoir "Chorzarb" sarlavhasi ostida to'rt xil adabiy shaklni — zarbulmatal, zarbulg'azal, zarbulmasal va zarbulnaqalni o'z ichiga olgan keng ko'lamli she'riy majmua yaratdi. Bu to'planning eng diqqatga sazovor qismini "Zarbulg'azal" — "barmoqdagi g'azallar" tashkil etadi. Mazkur shakl mumtoz aruz vaznidagi g'azalchilik an'alarini zamonaviy barmoq vazni imkoniyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Tashqi ko'rinishi a-b-a-b tartibida qo'fiyalangan uch band va v-v shaklida yakunlovchi baytdan iborat bo'lgan zarbulg'azal g'arb she'riyatidagi sonetga o'xshashlik kasb etsa-da, ruhan va mazmun jihatidan mumtoz sharq lirikasidan oziqlanadi. Aruz vaznini o'zlashtirmagan oddiy kitobxon uchun ham g'azalchilik estetikasini his ettirishga mo'ljallangan bu shakl o'z oldiga serqirra vazifa qo'yadi: an'anani saqlash va uni ommaga manzur qilish. Taxallusni maqta'da qo'llash qoidasi ham zarbulg'azalda o'z o'rnida saqlanib qolgan. Bu mumtoz she'riyat bilan vorislik rishtalari uzilmaganining isbotidir.

Lab ustiga qo'ndirilgan holingdan, o'zim!

Bu hol desam, shu holing ham uchragan ekan:

Ishqingda qon bo'lib ketgan jigari so'zim

Uchqun kabi labing uzra sachragan ekan.<sup>49</sup>

Zarbulg'azal namunalarida shoir sevgi lirikasining boy an'alarini yangi ruhda davom ettiradi. "Lab ustiga qo'ndirilgan holingdan, o'zim!" misoli misralar sharq lirikasida asrlar davomida shakllangan ma'shuqa go'zalligini ulug'lash motivini yangi poetik qolipda aks ettiradi. Xolning "qo'ndirilganligi" — bu fe'l tanlovida nozik ma'no yashiringan. Go'zallikning tasodifan emas, balki maxsus niyat va san'atkorona ilohiy iroda bilan yuzaga keltirilganligi ta'kidlanadi. Bu badiiy prinsip o'zbek adabiy an'anasida chuqur ildizga ega. Abdulla Qodiriy ham "O'tgan kunlar" romanida Kumush portretini tasvirlarken "tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xol" iborasidan foydalanadi. Ikki ijodkor — nasrchi va shoir bir xil estetik dunyoqarashdan suv ichadi, klassik sharq ta'siri ularning badiiy tafakkurini yagona bir yo'nalishga birlashtiradi.

Subhoniynovatorligining birinchi va eng muhim ma'rifiy ahamiyati shundaki, u mumtoz adabiyot merosini keng kitobxon ommasiga uchun ochib berdi. O'zbek klassik she'riyatining eng boy qismi — aruz vaznidagi g'azalchilik asrlar davomida tor mutaxassislar doirasiga oid bo'lib qoldi. Aruz vaznining murakkab qoidalarini o'zlashtirmagan oddiy o'quvchi bu ulkan merosdan bahramand bo'lish imkoniyatidan mahrum edi. Subhoniyn "zarbulg'azal" janrini yaratish orqali bu to'siqni bartaraf etdi. G'azalchilik estetikasini, uning ruhini, taxallus qo'llash an'anasini va lirik-falsafiy mazmunini barmoq vaznining xalqqa yaqin ohangida ifodalab, mumtoz meros bilan zamonaviy kitobxon o'rtasida ma'rifiy ko'priq qurdi. Bu harakat o'z mohiyatiga ko'ra

<sup>49</sup> Исроил Субҳоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. — Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. — Б. 3.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jadidchilik davridagi ma'rifatparvarlarning milliy madaniyatni keng ommaga yetkazish, uni ommalashtirish va shu orqali xalqni ma'nan yuksaltirish g'oyasining zamonaviy she'riy ifodasidir. Isroil Subhoniyning "Chorzarb" nomli to'plami zarbulmatal, zarbulg'azal, zarbulmasal, zarbulnaqal kabi to'rt badiiy shakllardan iboratdir. Shoir birinchilardan bo'lib "Zarbulg'azal" ("Barmoqdagi g'azallar") nomli she'rlar turkumini yaratdi. Ularda mumtoz she'riyatimizdagi g'azalchilik tendensiyalari sintez qilinib bugungi davr she'riyati ohangida qayta ijod qilingan va davom ettirilgan. "Zarbulg'azal" – arabcha "g'azalnamo lof urish" ma'nosida – barmoq vaznidagi "g'azal" turi bo'lib, a-b-a-b shaklida qofiyalangan 3 band va v-v shaklida ohangdosh bo'lib kelgan bir baytdan iborat. Aruz vaznidagi g'azalchilik an'analari, jumladan, xotima baytdagi taxallusni zikr etish qoidasi saqlab qolinadi".<sup>50</sup> G'azalchilikdagi barcha unsurlar mazkur barmoq vaznidagi g'azallarda ham mavjud bo'lib ular aruz vaznida emasligi bilan ajralib turadi. Barmoq vaznidagi g'azallar an'anaviy g'azalchilik ruhini o'zida singdirgan bo'lib ular g'arb she'riyatidagi sonetga o'xshaydi. Zarbulg'azalda taxallusni maqta'da qo'llash an'anasi turkumning xotima qismida amalga oshiriladi. Aruz vazni shu soha vakillarigagina tushunarli bo'lgan. Oddiy xalq vakillari esa uning mohiyatini anglashga qiynaladi. Aynan shu vajdan "zarbulg'azal" badiiy shakli ijod qilingan, g'azalchilikning haqiqiy mazasini barmoq vaznida sodda qilib xalqqa yetqazish ko'zlangan.

Shoir ijodidagi eng e'tiborli janriy kashfiyotlardan yana biri "shashqator" tushunchasi bilan bog'liq. Mazkur she'riy shakl to'rtta voqeaband misra va o'zaro ohangdosh xulosaviy baytdan tarkib topadi. Bunda asosiy g'oya yoki falsafiy fikr voqeaband qismda obrazli ko'rinishda bayon etilib, xotima baytda muxtasar va hikmatli tarzda umumlashiriladi. Bu usul sharq she'riyatidagi "irsol-ul-masal" san'atiga uzviy bog'liq. Konkret bir manzara yoki qiyos orqali abstrakt fikrni ko'rgazmali ifodalash maqsad qilinadi. Shoir o'zi yaratgan "Shashqatorlar" turkumida inson umrining o'tkinchiligi va hayotning omonat tabiati kabi cheksiz mavzularni shu shakl doirasida ifodaladi.

Oshiq va ma'shuqa munosabatlari tasvirida shoir "jigar" ramziga murojaat etadi — "ishqingda qon bo'lib ketgan jigari so'zim" misrasida his-tuyg'ular va azobning markazi sifatida talqin qilingan bu obraz mumtoz lirikaning o'ziga xos belgisidir.

Shu bir qatra qonimni sen atasang "xol" deb,  
Men ham o'sha atab turgan tilingdan o'pay!  
Yashirinib olsang agar – "xol"ingdan tanib  
Ming bir suluv orasidan qidirib topay.<sup>51</sup>

Tasavvuf falsafasida oshiq va ma'shuqa munosabati faqatgina insoniy ishq doirasi bilan cheklanib qolmaydi. U doimo ilohiy va insoniy sevgining o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi ramziy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu to'rt misrada Subhoniyni ana shu ikki qatlamli tizimni o'zining noyob poetik tili orqali ifodalab, zohiriy muhabbat tasvirini

<sup>50</sup> Tashova Dilorom Salimovna, Isroil Subhonning yangi badiiy shakl yo'lidagi izlanishlari, Luchshie intellektual izsledovaniya, 2024, № 6440/6250, 8 b., URL: <https://web-journal.ru/journal/article/view/6440/6250>

<sup>51</sup> Исроил Субхоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. – Б. 3.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

botiniy ma'rifiy-tasavvufiy mazmunga ko'taradi. Birinchi misradagi "bir qatra qon" timsoli tasavvuf adabiyotida son-sanoqsiz bor qo'llangan, ammo har safar yangi ma'no kasb etuvchi ramzdir. Halloj Mansurning "Ana-l-Haq" — "Men Haqman" deb aytganda to'kilgan qoni, Rumiyning ishq yo'lida qon bo'lib ketgan lirik qahramoni — bularning barchasi bir haqiqatga ishora qiladi: tasavvufda qon — bu oshiqning Haq yo'lida sarflagan eng qimmatli mulki, ya'ni o'z vujudidan kechishning timsoli. Shoir "bir qatra qonimni sen atasang xol deb"<sup>52</sup> deganda ma'shuqaning xoli — ilohiy jamolning belgisi, aslida oshiqning o'z qoni, ya'ni uning ilohiy ishqda erib, yo'qolib ketgan vujudining qoldig'i ekanligini ifodalaydi. Bu "fano"<sup>53</sup>, ya'ni oshiqning o'z-o'zidan kechib, sevgilida yo'qolishi g'oyasining eng nozik poetik ifodasidir.

"Men ham o'sha atab turgan tilingdan o'pay"<sup>54</sup> misrasida esa tasavvufiy "zikr" amali o'zining poetik ko'rinishini topadi. Tasavvufda zikr — "Alloh nomini doimo tilga olish, uni takrorlash orqali qalbni tozalash va ilohiy huzurga yaqinlashish ma'rifiy yo'lning asosiy amallaridan biridir"<sup>55</sup>. Shoir sevgilining tilidan o'pishni emas, balki u aytgan so'zni muqaddas zikr sifatida tilga olishni istaydi. Bu istak zohiran oddiy sevgi harakati bo'lib ko'rinsa-da, botinida ma'shuqa tilidan chiqqan so'zni ilohiy kalomga tenglashtirish, ya'ni ma'shuqani ilohiy jamolning zuhuri sifatida ko'rishni ifodalaydi.

"Yashirinib olsang agar — xolingdan tanib"<sup>56</sup> misrasida tasavvufning eng markaziy g'oyalaridan biri ilohiy sirning zuhur va istixfo, ya'ni namoyon bo'lish va yashirinish o'rtasidagi abadiy o'yini poetik shaklda ifodalanadi. Ibn Arabiy tasavvufida ilohiy zot doimo o'zini namoyon etish va yashirish o'rtasida — "tajalli va istixfo"<sup>57</sup> harakat qiladi. Bu harakat mavjudotning asosiy qonuni bo'lib, oshiq esa aynan shu o'yinda ma'shuqani, ya'ni ilohiy jamolni har qanday yashirinishda ham taniy olishga erishishi kerak. Shoir "xolingdan tanib, ming bir suluv orasidan qidirib topay" deganda bu ma'rifiy ko'rish qobiliyatini haqiqiy oshiqning belgisi bo'lmish ilohiy jamolni har qanday libosda ham tanish salohiyatini ifodalaydi. Bu tasavvufda "basirat", ya'ni qalb ko'zi bilan ko'rish deb ataluvchi ma'rifiy holning poetik ifodasidir.

Qaro holing tasviriga ming bir Hofiz kam,  
Baxsh etsa ham bira to'la beshta qit'ani.  
Jamolingni chizar ekan Xoliqi akram,  
Labing uzra qo'ygan ekan so'nggi nuqtani!<sup>58</sup>

<sup>52</sup> O'sha asar — B. 3.

<sup>53</sup> Navoiy asarlari lug'ati. Aliшер Navoiy asarlarining ўн беш томлигига илова. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — Б. 632.

<sup>54</sup> Исроил Субхоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. — Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. — Б. 3

<sup>55</sup> Navoiy asarlari lug'ati. Aliшер Navoiy asarlarining ўн беш томлигига илова. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — Б. 252.

<sup>57</sup> Navoiy asarlari lug'ati. Aliшер Navoiy asarlarining ўн беш томлигига илова. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — Б. 585.

<sup>58</sup> Исроил Субхоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. — Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. — Б. 3





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tasavvufda xol, nuqta — “vahdat nuqtasi”<sup>59</sup>, ya’ni Mutlaq Zotning birligini anglatuvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Ibn Arabiyning tasavvufiy tafakkurida “nuqta” bu mavjudotning ibtidosi, ilohiy zuhurning birinchi belgisidir. Shu talqinda “qaro xol” shunchaki jismoniy go’zallik elementi emas, balki ilohiy sirning insoniy siymoda ko’rinishi, Xoliqning o’z yaratganiga qo’ygan imzosi sifatida namoyon bo’ladi. Ming bir Hofizning yetarli emasligi esa bu sirni so’z bilan to’liq ifodalashning imkonsizligiga, tasavvufda “lison ul-g’ayb”, ya’ni g’ayb tili hech qachon to’liq aytib bo’linmasligiga ishoradir.

“Baxsh etsa ham bira to’la beshta qit’ani”<sup>60</sup> misrasida “besh qit’a”, ya’ni dunyo qit’alari timsolida ishlatilgan. Tasavvufiy tafakkurda “besh” soni ko’pincha besh unsur — nafs, qalb, ruh, sirr va xafi<sup>61</sup> bilan bog’liq. Bu besh unsur insonning ma’naviy tuzilishini tashkil etib, ularning barchasi birgalikda ilohiy jamolni idrok etish qobiliyatiga ega. Shoir Hofiz besh qit’ani baxsh etsa ham xolni to’liq tasvirlay olmasligini aytishida chuqur tasavvufiy ma’no yashirin. Ilohiy jamolni hatto besh unurning barchasi bilan ham to’liq idrok etib bo’lmaydi, u doimo inson idrokidan bir qadam ilgariylab turadi.

Tasavvuf falsafasida “tajalli”<sup>62</sup>, ya’ni ilohiy zuhur Xoliqning o’z kamolotini yaratq orqali namoyon etishidir. “Jamolingni chizar ekan Xoliqi akram”<sup>63</sup> iborasi bu tajalli g’oyasining to’g’ridan-to’g’ri poetik ifodasidir. Ma’shuqaning go’zalligi uning o’z mulki emas, balki Xoliqning uni o’z kamolotini zuhur ettirish uchun tanlagan makonidir. “So’nggi nuqtani qo’yish” esa ijodning tugallanishi xattot bir asarini yozib tugatgach qo’yadigan oxirgi nuqta timsoli sifatida Xoliqning o’z yaratqini mukammal holda yaratib bo’lganligini anglatadi.

Subhoniyning janriy izlanishlari lirik she’riyat doirasida ham to’xtab qolmagan. Shoir “Dudoq tegmas” sarlavhali ruboiy yaratdiki, bunda barcha so’zlar faqat til tovushlaridan tashkil topib, lab tovushlari (b, p, m, v, f) mutlaqo qo’llanilmaydi:

Yer agar jon tegrasida sochini dor aylasa,  
Og’ushini ko’xna zindon singari tor aylasa,  
Sadqai jon, ul dudog’ing sirrini oshkora et  
Isroilni ne desang de, shunda inkor aylasa.<sup>64</sup>

Bu sof fonologik tajriba she’riy matnning tovush qatlamiga ongli munosabatni ifodalaydi va tilning ichki imkoniyatlarini chuqur bilishni talab qiladi. Bundan tashqari, shoir yon tomonga va yuqoridan pastga o’qilganda ham aynan bir xil matn hosil bo’ladigan

<sup>59</sup> Navoiy asarlari lug’ati. Alisher Navoiy asarlarining ʻun besh tomliigiga ilova. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 147.


<sup>60</sup> Исроил Субхоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. – Б. 3

<sup>61</sup> Navoiy asarlari lug’ati. Alisher Navoiy asarlarining ʻun besh tomliigiga ilova. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 562.

<sup>62</sup> Navoiy asarlari lug’ati. Alisher Navoiy asarlarining ʻun besh tomliigiga ilova. – Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 585.

<sup>63</sup> O’sha asar – B. 3

<sup>64</sup> Субхоний, И. Бухоронинг етти юлдузи: шеърлар, бадиа / И. Субхоний. – Самарқанд: Фақур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарқанд филиали, 1991. – 36 - б.





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

murabba' namunasini yaratdi. Satrlarning bu xilda uyushtirilishi oddiy shakliy o'yin emas, balki o'zbek tilining leksik va sintaktik imkoniyatlarini cheksiz sayqallashni taqozo etadi. Ushbu murabba'da so'zlar har qaysi yo'nalishda o'qilganda ham mantiqan tutashiq va estetik jihatdan ta'sirchan matn hosil qiladi.

Shu bilan birga Subhoniyyon tarafga hamda yuqoridan pastga tomon o'qilsa ham bir xil matn hosil bo'ladigan murabba'<sup>65</sup> ham yaratgan. Bu noyob she'riy shakl nafaqat shoir qobiliyatining yuqori darajasini, balki o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini chuqur bilishini ham yaqqol ko'rsatadi.

Yuzing	Goho	Oy	Misoli
Goho	Mutlaq	Qiyosi	yo'q
Oy	Qiyosi	Kun	Adosi
Misoli	yo'q	Adosi	yo'q

Subhoniyy bu murakkab vazifani oddiy she'r shaklida emas, balki murabba' - to'rt misrali band shaklida amalga oshirgan. Murabba' klassik sharq she'riyatining an'anaviy shakli bo'lib, u o'z qoidalariga ega: har bir bandning to'rtta misrasi o'zaro qofiyalashishi yoki ma'lum tartibda qofiyalanishi kerak.

“Shakarob” nomli janr Subhoniyy ijodida nasr va she'riyat chegarasida yuzaga kelgan o'ziga xos adabiy hodisadir. Fors-tojik tilida “shirin suv” ma'nosini anglatuvchi bu so'z adabiy atama sifatida hayotdan olingan mitti hikoya — nasriy lavhadir. Agar hikoyani keng oqimli daryoga o'xshatsak, shakarob uning bir hovuch tiniq suviga mengzash mumkin. U hajman kichik, lekin mazmunan sermazmun. Bu janrda Subhoniyy ibratli va obrazli kichik voqealarni lo'nda tarzda bayon etadi.

Shoirning “Qirq qovun hangomasi” asari esa adabiy novatorlikning tamomila boshqacha qirralarini namoyish etadi. Qirq xil qovun naviga bag'ishlangan bu kitobda har bir nav haqida ma'lumot va unga hamroh to'rtlik keltirilgan. Bu o'zbek tabiati va xalq turmushiga oid boy bilimni she'riy qolipga solish tajribasi bo'lib, adabiyot va etnobotanika kesishmasida yuzaga kelgan noyob hodisadir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Isroil Subhoniyy zamonaviy o'zbek adabiyotida shakl va mazmun uyg'unligini o'zgacha bir pog'onaga ko'tara olgan ijodkordir. Uning janriy izlanishlari o'z-o'zligicha maqsad bo'lmay, balki chuqur falsafiy va estetik niyatlarga xizmat qiladi. Mumtoz an'anani zamon ruhiga monand yangilash, xalqqa tushunarsiz bo'lib qolgan ulkan she'riy meros imkoniyatlarini keng ommaga yetkazish Subhoniyy ijodining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Bu xususiyat uni Buxoro adabiy maktabining nafaqat davomchisi, balki yangilovchi kuchi sifatida tavsiflab, milliy adabiyot tarixida munosib o'rin belgilaydi.

<sup>65</sup> O'sha asar – B. 36.





1. Subhoniyy. Shashqator. Toshkent - O'zbekiston, 2019 - 120 bet.
2. Исроил Субхоний. Чорзарб: Зарбулматал, зарбулғазал, зарбулмасал, зарбулнақа. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2012. – Б. 70.
3. Tashova Dilorom Salimovna, Isroil Subhonning yangi badiiy shakl yo'lidagi izlanishlari, Luchshie intellektual izsledovaniya, 2024, № 6440/6250, URL: <https://web-journal.ru/journal/article/view/6440/6250>
4. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 632.
5. Субхоний, И. Бухоронинг етти юлдузи: шеърлар, бадиа / И. Субхоний. – Самарқанд: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарқанд филиали, 1991. – 84 б.

